



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

ABU YUSUF VA FIQH ILMI

Abduqahhor Raxmonov

Direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Termiz, O‘zbekiston

Email: rahmonov_a.a@mail.ru

ORCID ID: 0009-0006-6265-6453

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Hanafiylik, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Fiqh, Qozi ul-quzzot, mujtahid, xalifa Horun ar-Rashid, xalifalik ijtimoiy-ma’naviy hayot.

Annotatsiya: Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrohim al-Ansoriy fiqhning “oltin davri” deb ataladigan VIII–IX asrlarda yashagan, fiqh ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan islom dunyosidagi buyuk mutafakkirlardan biridir. Mazkur maqolada ana shu mutafakkirning hayoti va ijodi, hanafiylikning yoyilishida mutafakkirning xizmatlari hamda fiqhiy qarashlariga oid materiallarga urg‘u berilgan. Abu Yusufning xalifalik bosh qozisi lavozimida ishlaganligi tufayli hanafiylik nazariyadan amaliy hayotga tatbiq etilgani va xalifalik bo‘ylab keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Chunki Abu Hanifaning fiqhga oid asarlari bizgacha yetib kelmagan. Uning qarashlarini keyingi avlodlarga yetkazishda va hanafiylik mazhabini yoyishda shogirdlari katta o‘ringa ega. Ayniqsa, uning eng yaqin shogirdi Abu Yusuf bunda muhim shaxs hisoblanadi. Ushbu maqolada Abu Yusufning ilmiy merosi va fiqhiy qarashlari ochib berilgan.

Hanafiy mazhabining asoschi imom Abu Hanifa hisoblansa-da, mazhabining vujudga kelishi va tarqalishida uning shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniylarning xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Abu Hanifa fiqhiy qarashlari aks ettirilgan eng ahamiyatli manba hisoblanadigan “Zohirur rivoya” asarlari uning boshqa shogirdi Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy tomonidan yozilgan bo‘lsa-da, biroq Abu Yusufning davlat bosh qozisi bo‘lganligi, ustozlari Abu Hanifa vafotidan keyin uning dars halqasini davom ettirganligi va hanafiylik mazhabi bo‘yicha ilk asar yozganligi sababli uning fiqhiy qarashlarini tadqiq etishga loyiq deb hisoblasa bo‘ladi.

Hanafiy mazhabining nazariyotchilaridan biri hisoblangan Abu Yusufning hayoti, ilmiy merosi va fiqhiy

qarashlari asosida yozilgan ushbu maqolani hanafiylik mazhabining tarixini o'rganishga qaratilgan sa'y-harakat sifatida baholash mumkin. Abu Yusuf hanafiylik mazhabida Abu Hanifadan keyingi hurmatga sazovor shaxs bo'lgan va mazhabning usulini belgilovchi juda muhim faqihdir. Afsuski, Abbosiylar davlatida bosh qozi bo'lib ishlagan, ayni paytda mazhab uslubini bevosita tatbiq etgan va uni qo'llashning ilk namunalari ko'rsatgan Abu Yusuf haqida mamlakatimizda ko'p tadqiqotlar olib borilmaganini ko'rishimiz mumkin.

Yurtimiz odamlarining aksariyati hanafiy mazhabiga mansub ekanini hisobga olsak, hanafiy mazhabini keng targ'ib qilgan imom Abu Yusufning ilmiy merosi va uning fiqh ilmini bilish muhim sanaladi. Abu Yusuf nafaqat Abu Hanifaning eng zabardast shogirdi edi, balki u Abu Hanifa usulini amaliy hayotga tatbiq qiluvchi mazhab nazariyotchisi hamdir. U islom olamida ulkan davlat bo'lgan Abbosiylar xalifaligi davrida bosh qozi sifatida davlat boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan. U yuzga yaqin fiqhshunos shogirdlarni yetishtirdi. Abu Yusufning mana shunday yuksak fazilatlarining uning ilmiy merosini har tomonlama tadqiq etishni talab qiladi. Biroq uni bir maqola doirasida har tomonlama ochib berishning iloji yo'q. Shu bois maqolada u zotning hayoti, ijodi va fiqhiy qarashlariga to'xtalib o'tiladi.

ABU YUSUF AND THE SCIENCE OF FIQH

Abdukakhor Rakhmanov

Deputy director, doctor of philosophy (PhD), associate professor.

Termiz Branch of Tashkent Medical Academy

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Hanafi movement, Abu Hanifa, Abu Yusuf, "Kitab al-Haraj", Fiqh, tax system, Kadi ul-kuzzat, Caliph Harun al-Rashid, socio-economic policy of the Caliphate.

Abstract: Yaqub Abu Yusuf ibn Ibrahim al-Ansari, who lived in the VIII-IX centuries, which is called the "golden age" of fiqh, is one of the great thinkers in the Islamic world who made a great contribution to the development of the science of fiqh. This article focuses on the life and work of this thinker, the services of the thinker in the spread of Hanafism, and the materials related to his jurisprudence. Abu Yusuf's tenure as the chief judge of the caliphate caused Hanafism to be applied from theory to practice and spread throughout the caliphate. Because Abu Hanifa's works on jurisprudence have not reached us. His students have a great role in conveying his views to the next generations and in spreading the Hanafi sect. Abu Yusuf, his closest student, is especially important in this. This article reveals Abu Yusuf's scientific legacy and jurisprudential views.

Although Imam Abu Hanifa is considered the founder of the Hanafi sect, the services of his students Abu Yusuf and Muhammad al-Shaybani in the creation and spread of the

sect should be highlighted. Although the works of Zahirur Rivaya, which is considered the most important source of Abu Hanifa's jurisprudential views, were written by his other student, Imam Muhammad ibn Hasan al-Shaybani, but Abu Yusuf was the chief judge of the state, and continued his teaching after his teacher Abu Hanifa's death. since he wrote the first work on the Hanafi madhhab, his jurisprudential views can be considered worthy of research.

This article, based on the life, scientific heritage and jurisprudential views of Abu Yusuf, who is considered one of the theorists of the Hanafi school, can be evaluated as an effort to study the history of the Hanafi school. Abu Yusuf was the most respected figure in the Hanafi school after Abu Hanifa and was a very important jurist who defined the method of the school. Unfortunately, we can see that not many studies have been conducted in our country about Abu Yusuf, who worked as the chief judge in the Abbasid state, and at the same time directly applied the sectarian method and showed the first examples of its application.

Considering that the majority of the people of our country belong to the Hanafi school, it is important to know the scientific legacy of Imam Abu Yusuf, who widely promoted the Hanafi school, and his jurisprudence. Abu Yusuf was not only Abu Hanifa's greatest disciple, but he was also a sect theorist who applied Abu Hanifa's method to practical life. He worked in the state administration system as the chief judge during the Abbasid caliphate, which was a huge state in the Islamic world. He trained about a hundred students of jurisprudence. Such high qualities of Abu Yusuf require comprehensive research of his scientific heritage. However, it is impossible to reveal it comprehensively in one article. Therefore, the article focuses on his life, work and jurisprudence views.

АБУ ЮСУФ И НАУКА ФИКХ

Абдукахор Рахманов

Заместитель директора, доктор философских наук, доцент.

Термезский филиал Ташкентской медицинской академии

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ханафизм, Абу Ханифа, Абу Юсуф, “Китаб аль-Харадж”, Фикх, налоговая система, Кади уль-кузат, халиф Харун ар-Рашид, социально-экономическая политика халифата.

Аннотация: Якуб Абу Юсуф ибн Ибрагим аль-Ансари, живший в VIII-IX веках, который называют «золотым веком» фикха, является одним из великих мыслителей исламского мира, внесшим большой вклад в развитие науки. фикха. В данной статье речь идет о жизни и деятельности этого мыслителя, заслугах мыслителя в распространении ханафизма, а также материалах, относящихся к его правоведению.

Пребывание Абу Юсуфа на посту главного судьи халифата привело к тому, что ханафизм стал применяться от теории к практике и распространился по всему халифату. Потому что труды Абу Ханифы по юриспруденции до нас не дошли. Его ученики играют огромную роль в передаче его взглядов следующим поколениям и распространении ханафитской секты. Особенно важен в этом Абу Юсуф, его ближайший ученик. В данной статье раскрывается научное наследие и юридические взгляды Абу Юсуфа.

Хотя имам Абу Ханифа считается основателем ханафитской секты, следует особо отметить заслуги его учеников Абу Юсуфа и Мухаммада аль-Шайбани в создании и распространении секты. Хотя труды Захирура Ривайи, считающиеся важнейшим источником юридических взглядов Абу Ханифы, были написаны другим его учеником, имамом Мухаммадом ибн Хасаном аль-Шайбани, однако Абу Юсуф был главным судьей государства и продолжал свое учение. После смерти своего учителя Абу Ханифы, поскольку он написал первый труд по ханафитскому мазхабу, его юридические взгляды можно считать достойными исследования.

Данную статью, основанную на жизни, научном наследии и юридических взглядах Абу Юсуфа, считающегося одним из теоретиков ханафитской школы, можно оценить как попытку изучения истории ханафитской школы. Абу Юсуф был самым уважаемым деятелем ханафитской школы после Абу Ханифы и был очень важным юристом, определившим методы школы. К сожалению, мы видим, что в нашей стране проведено не так много исследований об Абу Юсуфе, который работал главным судьей в государстве Аббасидов и в то же время непосредственно применил сектантский метод и показал первые примеры его применения.

Учитывая, что большинство жителей нашей страны принадлежат к ханафитской школе, важно знать научное наследие имама Абу Юсуфа, широко пропагандировавшего ханафитскую школу, и его юриспруденцию. Абу Юсуф был не только величайшим учеником Абу Ханифы, но также теоретиком сектантства, который применил метод Абу Ханифы в практической жизни. Он работал в системе государственного управления в должности главного судьи во времена халифата Аббасидов, который был огромным государством в исламском мире. Он подготовил около ста студентов-юристов. Столь высокие качества Абу Юсуфа требуют всестороннего исследования его научного наследия. Однако всесторонне раскрыть его в одной статье невозможно. Поэтому в статье основное внимание уделяется его

KIRISH

VIII va IX asrlarda Qur'onni sharh-u tafsir etish, Payg'ambar (s.a.u) hadislarini bo'yicha tadqiqot olib borib, ularni to'plash va soxta hadislardan ajratish sohasida izchil faoliyatning guvohi bo'lamiz. Buning natijasida ko'plab islom ilmlarining kelib chiqishi yuz berdi. Xususan, fiqh ilmi islom huquqidan iborat bo'lib, u ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida uchraydigan turli masalalar xususida bahs yuritib, bu masalalarga nisbatan shariatning tutgan o'rmini belgilab beruvchi ilmdir. Fiqh ilmi Qur'on va sunnatda mavjud bo'lgan aniq dalillar asosida shar'iy hukmlar chiqarishga tayanadi. Bu esa fiqh ulamolari o'rtasida munozaralarni hamda musulmonlar orasida turli mazhablarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Hijratning ikkinchi asridan boshlab islom shariatini mukammal talqin qila oladigan yirik fiqh olimlari yetishib chiqq boshladi. Ularning eng yiriklari Abu Hanifa No'mon ibn Sobit, Abu Abdulloh Molik ibn Anas, Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris, Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal edilar¹. Mazkur fiqh olimlarining ilm faoliyati natijasida islomda to'rt mazhab vujudga keldi. Bu mazhablar ichida musulmonlar orasida eng keng tarqalgani hanafiylik mazhabidir. Mazhab asoschisi Abu Hanifa an-No'mon hisoblanadi. Ammo mazhabni shakllantirishda uning shogirdlari Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniylarning xizmati kattadir.

Ibn Xaldun fikricha, bunga xalifa Horun ar-Rashid davrida Abu Yusufning "Qozi ul-quzzot", ya'ni qozilar qozisi yoki qozikalon lavozimida uzoq muddat faoliyat yuritgani sabab bo'ldi. O'sha davrda butun islom olami Abu Hanifaning maslahati bilan ish ko'rardi. U o'z vaqtida ko'plab o'quvchilarga ustozlik qildi. Lekin unga eng yaqin bo'lgan bir necha shogirdlari u bilan uning vafotiga qadar birga qoldi. Ular taxminan 36 nafar bo'lib, ular ichida Abu Yusuf, Muhammad ash-Shayboniy, Zufar ibn Xuzayl, Hasan ibn Ziyod, Xammad ibn Hasan, Abdulla ibn Muborak, Voqi ibn Jarroh, Abu Amr Xafs ibn G'iyos, Yahyo ibn Zakariyyo, Dovud at-Ta'i, Asad ibn Amr, Afyat ibn Yazid al-Advi, Qosim ibn Maan, Ali ibn Mushir, Xibban ibn Ali va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Umuman olganda, Abu Hanifaning shogirdlaridan o'n to'rt nafari qozi ul-quzzot va qozi bo'lgan.²

Abu Hanifa o'zidan ko'plab mashhur shogirdlar qoldirdi. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar:

¹ Aydarbek Tulepov. Islom va aqidaparast oqimlar. O'zbekiston. 2013. –B. 26

² Soatmurod O'rol o'g'li. Hanafiy mazhabining tarqalishi. 2019-yil 1-sentabr. <http://hidoyat.uz>

1. Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrohim al-Kufiy (113–182) Abbosiylar xalifaligida Horun ar-Rashid davrida bosh qozi lavozimida ishlagan. U hanafiylik mazhabining keng tarqalishiga katta hissa qo‘shgan.

2. Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy (132–189) Vasiyda tug‘ilgan. Keyin Kufa va Bag‘dodda yashagan. Rayda vafot etgan. Abu Hanifa va Abu Yusufdan ta‘lim olgan. U ham Iroq fiqh maktabi vakili bo‘lib, ushbu mazhabning tarqalishida hissa qo‘shgan. Uning “Zohir ar-Rivoyat” asari hanafiylik mazhabidagi eng mashhur kitoblardan biri hisoblanadi.

3. Abual-Xuzayl, Zufar ibn Xuzayl ibn Qaus al-Kufiy (110–158) Isfaxonda tug‘ilgan, Basrada vafot etgan. U Abu Hanifaning qiyos borasidagi eng qobiliyatli shogirdi bo‘lgan. Hanafiylikning rivojlanishida katta rol o‘ynagan.

4. Hasan ibn Ziyod al-Lulu (204 yil vafot etgan) dastlab Abu Hanifadan, keyin Abu Yusufdan huquqni o‘rgandi. U muhaddis bo‘lgan. Ustoz Abu Hanifaning qarashlarini yozib qoldirgan. Uning hanafiylik bo‘yicha yozgan asarlari juda mashhur³.

Bag‘dodda bir necha asr davomida shayx ul-islom va qozi ul-quzzotlar hanafiy olimlaridan tayinlangan. Shu sabab Iroq va uning poytaxti Bag‘dod nafaqat islom mamlakatlari, balki hanafiy mazhabining ham markaziga aylandi. Keyinroq Movarounnahr hanafiy mazhabining ikkinchi yirik markazi bo‘ldi.

Asosiy qism. Islom dunyosidagi ulkan allomalardan biri bo‘lmish Yoqub Abu Yusuf o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari orqali ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shdi. U buyuk fiqhshunos olim va davlat arbobi edi. Abu Yusuf Abu Hanifaning eng yaxshi shogirdi va uning izdoshi bo‘lgan. Abu Hanifa vafotidan so‘ng uning ishlarini davom ettirgan va hanafiylikning keng tarqalishiga munosib hissa qo‘shgan. Abbosiy xalifalar Mahdiy, Hodiy va Horun ar-Rashidlar davrida yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Ularning barchasi uni e‘zozlagan. U xalifa Horun ar-Rashid davrida qoziul-quzzot (bosh qozi) lavozimiga ko‘tarilgan.

Abu Yusuf 13 yoshida Kufa shahri qozisi Abu Laylodan fiqhni o‘rgandi, oradan to‘qqiz yil o‘tgach Abu Hanifa dars halqasiga qo‘shildi. U Abu Hanifa vafotiga qadar u zot bilan birga qoldi. Abu Yusuf ilmiy faoliyatining avvalida hadis ilmiga yuzlangan. Abu Is‘hoq Shayboniy, Sulaymon at-Tamimiy, Yahyo ibn Said, al-A‘mash al-Ansoriy, Hishom ibn Urva, Ato ibn Soib, Muhammad ibn Ishoq ibn Yasir va Lays ibn Sa‘d kabi o‘z davrining yetuk muhaddislaridan saboq olgan⁴. Dastlab, u hadis ilmi bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, Abu Hanifaga shogird bo‘lgach, ra‘y va qiyos tarafdoriga aylandi, Abu Hanifaga ergashib, ba‘zan uning fikrlariga qarshi fikr bildirib buyuk fiqhshunos olim bo‘lib yetishdi. U endi fiqh, ya‘ni islom

³ Abdulhakim Shar‘iy Juzjoniy. Islom huquqshunosligi, Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. –Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti. 2002. – B.140.

⁴ Juzjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2002. – B. 156.

huquqshunosligi bilan shug'ullanar edi. U fiqhiy masalalarni yechishda dastlab Qur'oni karim, keyin hadislarga murojaat etar, so'ngra esa Abu Hanifa targ'ib etgan ra'y va qiyosga tayanar edi. Ahli hadis ko'pincha ra'y va qiyos tarafdorlarini yoqlamagan bo'lsalar ham, ularning ko'plari Abu Yusufga katta e'tibor qaratib, uni maqtaganlar. U nihoyatda oliy zakovat va yuksak iste'dod egasi sifatida xalifa Horun ar-Rashidga juda yaqin va ishonarli kishi bo'lgan. U odatda huquqiy masalalarda Abu Yusuf bilan bamaslahat ish olib borgan. Abu Yusuf xalifa Horun ar-Rashid bilan bir qancha sayohatlarga chiqqan. Makkada Imom Shofe'iy, Madinada Imom Molik bilan uchrashuvlar va munozaralar o'tkazgan.

Hanafiylik mazhabining ikkinchi buyuk fiqh namoyandasi ilmiy faoliyati davomida o'zining dars halqasini yaratgan. Ahmad ibn Xanbal, Muhammad ash-Shayboniy, Yahyo ibn Ma'in, Bishr ibn Volid al-Kindiy, Ali ibn Ka'b, Ali ibn at-Tusiy, Amr ibn Abu Amr kabi ko'plab ulamolarga saboq bergan. U fiqh ilmida ustozlari Abu Hanifaning izidan borib, avvalo Qur'oni karim va sunnatga, keyin sahobalarning amallariga ergashdi. U ahli ra'yni ahli hadisdan ajratmadi. Tarixchilar ta'kidlaganidek, hanafiy mazhabining Abu Hanifadan keyingi eng buyuk faqihi Abu Yusufdir.

Abu Yusuf xalifa Mahdiy (775–785) davrida 783-yil Bag'dod shahri qozisi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Xalifa Horun ar-Rashid davrida mamlakatdan qoziul- quzzot (bosh qozi) lavozimi joriy etilib, bu vazifaga Abu Yusuf tayinlandi⁵. Ma'lumki, qozilik dastlab Payg'ambarimiz (s.a.v) davrida joriy etilgan bo'lib, u vaqtlarda qozilar kichik masalalarni, jumladan, uy-xo'jalik yumushlari, o'zaro kelishmovchiliklar kabi ishlarni ko'rib chiqardi. Odatda, qozilarni xalifalarning o'zlari maxsus joylarga tayinlagan. Ular kichik-kichik ishlarni ajrim qilish bilan birgalikda o'sha yerdagi diniy hayotni bir maromda ushlab turgan. Lekin katta masalalarni, xususan, odam o'ldirish, yuqori lavozimli shaxsga suiqasd qilish kabilarga nisbatan xalifaning o'zi hukm chiqargan. Abu Yusufga esa butun xalifalikdagi barcha qozilarni saylash va lavozimidan ozod etish, har qanday fiqhiy masalani yechish kabi huquqlar berildi. Bu holat xalifalikda hanafiylik mazhabining mustahkamlanishiga va uning keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Abu Yusuf hijriy 182-yil (milodiy 798-yil) sud ishini bajarib turgan chog'ida hayotdan ko'z yumdi. Abu Yusuf ba'zi manbalarda 40 ta, ba'zilarida 36 ta kitob yozgan deyiladi⁶.

Abu Yusuf tomonidan ko'plab asar yozib qoldirilgan.

“Kitob ul-asar” kitobi Abu Yusufning ustozlari Abu Hanifadan o'rgangan bilimlar o'g'liga o'git tarzida yozib qoldirgan asardir. Unda fiqh asoslari bayon etilgan. Kitob Abu Hanifaning

⁵ Hendri H.A. The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic banking and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018. – P. 42.

⁶ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.27.

qarashlari va uning huquqiy metodiga tayanib yozilgan va fiqhiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu kitobda Kufa ulamolari fiqhiga asoslangan Iroq fiqhi ham keltirilgan.

“Kitob ul-asar”da 1067 ta masalani, ya’ni fiqhning aksariyat mavzularini qamragan. Ibadat avvalidagi tahorat, azon, namozni boshlash, namozdagi e’tiborsizliklar, ikki hayit namozi, zakot va haj marosimlari kabi 39 ta fiqh bobini o’zida jamlagan.

Keyingisi “Ar-raddu ‘alaa Siyar ul-Avza’i” (Avza’ining “as-Siyar” kitobiga raddiya) bo’lib, unda Abu Hanifa va Avza’i o’rtasidagi urushlar, sulhlar, boshpana berish, shuningdek, o’ljalar haqidagi ziddiyatlari bayon etilgan, Abu Hanifaning kuchli mantiqiy tafakkurga ega ekanligi yoritilib, har bir masala har tomonlama va mantiqiy asoslanganligi va asoslar hadislar bilan isbotlanganligi ta’kidlangan.

Ma’lumki, imom Avzo’i imom Abu Hanifaning zamondoshi bo’lgan. Avzo’i Shom, Abu Hanifa esa Iroq faqihi edi. Avzo’i asar va rivoyat, Abu Hanifa esa ra’y faqihi hisoblangan, tabiiyki, ular o’rtasida fatvo va matnni fahmlashda ixtiloflar yuzaga kelib turardi. Imom Avzo’i tarix haqida, ya’ni tinchlik, xotirjamlik, omonlik, g’animlar va o’ljalar hukmlariga oid kitob yozgan. Ushbu mavzularning barchasi shariat hukmlari bilan bog’liq bo’lib, manbasi, Quroni karim, sunnat, roshidin va sahobalarning harakatlarini o’z ichiga olgan fiqhiy dasturdir.

Avzo’ining aksariyat hukmlari Abu Hanifadagi mavzularga xilof bo’lib, natijada Abu Yusuf “Avzo’i tarixiga raddiya” kitobini yozgan. Abu Yusufning Avzo’iga bergan raddiyalari hanafiya fiqhi nazariyasidan kelib chiqqan edi.

Abu Yusufning yana bir asari “Abu Hanifa va Ibn Abu Laylo o’rtasidagi ziddiyat” deb nomlanadi. Ibn Abu Laylo Kufa qozisi va faqihi bo’lib, Abu Yusufning Abu Hanifadan oldingi ustoz edi. Ikki imom o’rtasida ko’pgina fiqhiy masalalarda ixtiloflar yuzaga kelgan. Unda Abu Yusuf ikki buyuk faqihning huquqiy qarashlaridagi farqlarni ko’rsatib o’tgan⁷.

Abu Yusuf yozgan asarlar ichida eng mashhur va muhimi “Kitob al-xaroj” asaridir. U “solih kitobi” yoki “xiroj kitobi” deb tarjima qilinadi. Bu kitob Horun ar-Rashidning buyrug’iga ko’ra yozilgani asar muqaddimasida aytib o’tilgan. “Kitob al-xaroj” asari islom tarixida davlat xarajatlarini mablag’ bilan ta’minlashda soliqlarning o’rni va roli, soliq turlari, miqdori, ularni yig’ish, to’plash, jamiyat va davlat ehtiyojlari uchun teng taqsimlash tartibi, fuqarolar va soliq yig’uvchilarning huquq va majburiyatlari bilan bog’liq munosabatlarni tartibga soluvchi musulmon huquqshunosligi normalariga bag’ishlangan asardir. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi, xalifalik tarixi va an’analari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. “Kitob al-xaroj” asari islom davlati hududi kengaygan davrda, turli o’lkalardagi ayrim masalalar tufayli yuzaga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan bo’lib, Abu Yusuf uni hanafiy mazhabi

⁷ Доктор Мустафо Шакъа. Буюк имом Абу Ханифа Нўъмон. – Самарқанд, “Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти”. 2019. – Б. 123–124.

huquqiy nazariyasiga tayangan holda, shuningdek, eng ishonchli hadislar, sahobalarning aytgan soʻzlari, qoʻllagan usul va qoidalardan foydalanib yozgan va Horun ar-Rashidga taqdim etgan. “Kitob al-xaroj” asari undan keyin Yahyo ibn Odam, Abu al-Abbos Muhammad Kotib, Abu al-Faraj Qudama ibn Jaʼfar, Hasan ibn Ziyod, Nasr ibn Muso ar-Romiy tomonidan islom iqtisodiy tizimi va soliq masalalariga oid kitoblar orasida oʻzining ilmiyligi va daqiqiligi bilan ulardan ajralib turadi. “Kitob al-xaroj” asarida 550 ga yaqin hadis keltirilgan⁸. Uning ahamiyati juda katta.

“Kitob al-xaroj” asari ilk xalifalik davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yoritilgan va bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalardan biri. Abu Yusufning qilgan ishi unda faqatgina soliq olish haqida yoritib oʻtmay, balki katta ijtimoiy xarakterli masalalarga ham eʼtibor qaratgan. Muallif uni yoritishda quruq nazariyaga tayanmagan, balki unda aniq faktik materiallar bilan dalillaganligi ahamiyatlidir. Shuningdek, u xalifalikdagi oʻzgarishlarni ham hisobga olgan.

Abu Yusuf bu asarni xalifa Horun ar-Rashidning bergan savollariga javob tariqasida yozgan. Muallif kitobning muqaddimasida xalifaga qarata shunday taʼkidlaydi: “Ertaga tajovuzkorlar yoʻlidan borganlar qatorida Alloh huzurida toʻxtamagin, negaki qiyomat kunining egasi oʻz bandalarini ularning maqomlariga qarab emas, balki bajargan ishlariga qarab jazo beradi”⁹.

“Kitob al-xaroj” asarini yozishdan maqsad amaliy hayotda davlat daromadlari va xarajatlari oʻrtasidagi munosabatlarning optimal variantini topishdir. Abu Yusuf hukumat oldidagi javobgarlikni boʻyniga olib, uni dalillarga asoslangan holda yozgan. Bu asar kabi soliq masalalari mukammal yoritilgan asar musulmon davlatchiligi tarixida boʻlmagan.

“Kitob al-xaroj” xalifa Horun ar-Rashidning buyurtmasi boʻyicha Abu Yusuf tomonidan bosh qozilik davrida yozilgan. Kitob xalifa tomonidan berilgan savollarga javoblar shaklida tuzilgan. Bu oʻziga xos uslubda, xalifa nomidan savollar muallifning oʻzi tomonidan shakllantirilgan. Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta eʼtibor qaratgan. Chunki, kitob tuzilishi jihatidan bevosita ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bogʻliqdir. Abu Yusuf “Kitob al-xaroj” asarida soliq undirish usullari, soliq turlariga batafsil toʻxtalgan. Musulmon soliq sistemasi islom qonunchiligida soliq undirishning turli oʻlchamlarini koʻrsatib oʻtgan.

⁸ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.35.

⁹ Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит. статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001. – С.35.

Oʻrta asr olimlari Abu Yusufning “Kitob al-xaroj” asariga baho berar ekan. Bu asar islom moliyasining umumiy moliyasini tartibga soluvchi asar boʻlib, u musulmon va nomusulmon fuqarolar oʻrtasida toʻliq adolat tamoyilini oʻzida aks ettiradi deya tʻakidlaydilar.

Abu Yusufning asosiy ajralib turadigan xususiyati uning fiqhidir. U oʻz davrida Imomi Aʼzam Abu Hanifaning eng koʻzga koʻringan shogirdi boʻlibgina qolmay, fiqh ilmida hurmatga sazovor boʻlgan buyuk olim ham edi. Abu Yusufning fiqhini uning qozilik vazifasini bajarayotgan davrida qabul qilgan qarorlaridan, mujtahid olim sifatida fiqh masalalariga oid savollarga bergan javoblaridan va u tomonidan yozilgan asarlari orqali aniqlash mumkin. Shu sababdan dastlab Abu Yusufning qozilik faoliyatini koʻrib chiqamiz. Shundan soʻng, Abu Yusufning asarlarida berilgan turli fatvo va qarashlarini tahlil qilish asosida uning fiqhini ochib beramiz.

Abbosiyning ilk davrida qozilarni hukmdorlar shaxsan oʻzlari tayinlaganlar. Biroq vaqt oʻtishi bilan davlat chegaralari kengayib, shaharlar aholisi gavjum boʻlib borishi bilan har bir shahar uchun alohida qozilar tayinlana boshlagan. Abu Yusuf Abbosiylar davlatida uzoq muddat qozilik qilgan. Xalifa Horun ar-Rashid davrida bu lavozimdagi eng oliy mansab boʻlgan qozil-quzzot lavozimiga tayinlangan va bu unvon bilan tilga olingan birinchi shaxs boʻlgan. Bundan buyon qozilarning tayinlanishiga ham masʼul boʻlgan Abu Yusuf joylarga hanafiy mazhabiga mansub qozilarni tayinladi va bu mazhabning keng tarqalishini taʼminladi. Uning davrida hech bir qozi uning ruxsatisiz tayinlanmagan.

Abu Yusufning qozilik vazifasi xalqning umumiy ishlaridan xabardor boʻlib, fiqhiy qarashlarining kamol topishiga taʼsir koʻrsatish edi. Abu Yusufning ana shu tajribasi tufayli hanafiy fiqhi boʻyicha ulkan bilim manbai vujudga keldi. Abu Yusufdan olingan bu ilm keyingi davrda hanafiylikka ham oʻz taʼsirini oʻtkazdi. Abu Yusufning qozilik burchi maʼruza toʻgaraklarida nazariylashtirilgan fiqhni amaliy sohaga oʻtkazishda muhim rol oʻynadi.

Abu Yusuf qozilik davrida hammaga teng munosabatda boʻlishga, qonun ustuvorligini himoya qilishga harakat qildi. U davlat amaldorlari bilan yaqin aloqada boʻlganligi uchun ularning roziligiga boʻysunmadi, aksincha, u qonun ustuvorligini taʼminlash uchun qaror qabul qilishga intildi. Abu Yusuf qozilik davrida xalifaga va davlat arboblari nasihatlar berib, adolatdan qaytmaslikni, xalq bilan yaxshi muomala qilishni tavsiya qildi.

Hanafiylik mazhabi maqomotida Abu Hanifa bilan birga “shayxon” nomini olgan Abu Yusuf mazhab uslubini ochib berish va amalga oshirishda katta oʻringa ega. Abu Yusuf qalamiga mansub asarlar, avvalambor, hanafiy mazhabining tarqalishi va rivojlanishida, uning usullarining amaliy hayotga tatbiq etilishiga taʼsir koʻrsatdi. U Abu Hanifa va hanafiylikning tarqalishiga

hissa qo'shganidek, ustozining qarashlarini keyingi avlodlarga yetkazishda ismi unutiladigan Ibn Abu Laylo kabi ustozining ham fiqh ilmidp muhim rol o'ynaganini ko'rsatib berdi.

Ko'rinib turibdiki, Abu Yusuf o'z ilmiy faoliyatining dastlabki bosqichlarida Abu Hanifa qarashlari bilan ish olib borib, uning usulini qo'llagan. Biroq, keyinchalik o'zi o'rgangan va qabul qilgan ko'pgina masalalarda ustoziga qarshi chiqqanini ko'rish mumkin.

Abu Yusufning fiqhiy tafakkurining asosiy xususiyati uning Abu Hanifaga nisbatan hadisga ko'proq sodiqligi ekanligida ko'rinadi. Abu Yusuf hadislarni yod olish bilan birga, ularning tafsiri va talqinida ham faol rol o'ynagan. Shunday ekan, muhaddislardan ko'p hadislar olganligi, ustoz davrida hujjatlashtirilmagan hadislarning o'z vaqtida keltirilganligi uning ba'zan ustozidan boshqacha fikr bildirishining sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Shuningdek, Abu Yusuf Molik ibn Anas bilan uchrashib, undan hadislar rivoyat qilgan. Bir suhbatda Abu Yusuf va Molik ibn Anas fiqhiy mulohazalar olib borib, avval Abu Hanifa bilan kelishilgan qarashlaridan chekinganini ko'rishimiz mumkin. Bu Iroq fiqh maktabi bilan Hijoz fiqh maktabini bir-biriga yaqinlashtirish imkoniyatini beradi. Abu Yusufni hadis ilmidagi nufuzli ulamolar hadislarni yetkazishda ishonchli, sahih va ularni qabul qilishda adolatli shaxs sifatida ko'rishadi. Abu Yusufning muhaddislar tomonidan katta hurmat ko'rsatilishining yana bir sababi uning hadisshunoslik ilmiga moyilligi bilan izohlash mumkin.

Abu Yusufning qozilik lavozimini egallashini ham uning Abu Hanifa bilan turlicha qarashlarga ega bo'lishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida qayd etish mumkin. Bu vazifa unga hukmlarni qo'llashda katta tajriba orttirish imkonini berdi, shu bilan hanafiylik mazhabining rivojlanishiga va fiqh ilmining kuchli bo'lishiga imkon yaratdi. Chunki Abu Hanifa o'zining fiqhiy qarashlarini qo'llash imkoniyatiga ega emas edi. Aksariyat manbalarda Abu Yusuf haqida juda yaxshi fikrlar bildirilgan, ayniqsa uning hadis va fiqh ilmida ilg'or bo'lganligi ta'kidlanadi. Ibn Imodning yozishicha, Abu Yusuf o'z asrining eng savodli kishisi bo'lib, undan hech kim oshib ketolmagan. Boshqa tomondan, ko'pchilik olimlar Abu Yusufning fiqh ilmini yuqori baholaganlar. Albatta, o'sha davr hukmron sulola tomonidan qoziul-quzzot kabi yuksak lavozimga tayinlanishi uning fiqh ilmining yuksak darajasiga ko'tarilishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Yusuf hadis ilmiga eng ko'p qiziqqan ulamolardan biridir. Darhaqiqat, u o'zining zamondoshi hanafiy ulamolari ilgari amal qilmaslikni afzal ko'rgan ba'zi hadislarga amal qilgan. Hadislarga bo'lgan munosabati tufayli hadis ahliga moyil bo'lgan, deb o'ylash mumkin. Biroq, shunga qaramay, ra'y ahlining usuliga amal qilishi va hukm chiqarishda qiyos va istihsonga ko'ra ish tutishi, uni ra'y ahlidan deyishimizga asos bo'ladi. Darhaqiqat, hadis ilmi bilan keng shug'ullangan bo'lishiga qaramay, u zot hadis ahli tomonidan ra'y ahlidan biri sifatida qabul qilingan.

Zahabiyning rivoyat qilishicha, u vafoti arafasida bemor sifatida to'shakda yotganida: "Hukm chiqarishda Allohning kalomi va Rasulilloh (s.a.v) ning sunnatiga ko'ra ish tutdim. Agar topa olmasam, hal qilinishi murakkab masalalarda Abu Hanifaning fikrini asos qilib oldim" jumlasini uning ijtihoat usuli haqida ma'lumot beradi. Uning fiqhiy qarashlariga e'tibor bersak, Qur'oni karim, sunnat, ijmo, qiyos, istihson, sahobalar so'zlari, shariat va diniy urf-odat kabi barcha dalillardan hukm chiqargan, deyish mumkin.

Saraxsiy, Abu Bakr ar-Roziy va Abul-Hasan Karxining ma'lumotlariga ko'ra, Abu Yusufning ba'zi masalalar bo'yicha hukm chiqarayotganda: "Bu masalada qiyos quyidagicha bo'ladi, men asarni o'qib o'rganib, qiyosni tark etdim" deb aytganlarini keltirganlar. Saraxsiy bu yerda asar deganda nazarda tutilgan narsa sahobalar so'zlaridan biri bo'lib, Abu Yusufning qiyosdan ko'ra sahobalar so'zlarini afzal ko'rganiga dalil ekanligini ta'kidlaydi. Abu Yusuf qozilik davrida siyosiy va boshqaruv ishlari bilan ham shug'ullangani bois istihson usuliga ko'p murojaat etgan. Abu Yusufning istihson usuli bilan bergan fatvolaridan "vaqt o'tishi bilan ba'zi hukmlarning o'zgarishi", "zaruriyat qarab yengillik berish", "kam uchraydigan narsadan ko'ra, umumiy bo'lgan narsaga qarab hukm chiqarish", "huquqlarning suiiste'mol qilinishining oldini olish" kabi ko'plab umumiy qoidalar chiqarilgan. Ko'rinib turibdiki, Abu Yusuf qoidalarining zohiriy ma'nosidan ko'ra, uning mazmun-maqsadiga qarab hukm chiqarishni afzal bilgan.

Abu Yusuf zarurat va umumiy sababga ko'ra, yengillashtiruvchi fatvo berishdan cho'chimasdi. Agar qarz olingan pul o'z qiymatini yo'qotsa, bu pulning evaziga shu pul qiymatidagi narsa bilan to'lanishi kerakligi haqidagi fatvoni misol qilib keltirish mumkin. Bu keltirilgan ahkomlardan anglashilindiki, Abu Yusuf shariat qoidalarini puxta egallagan, muqaddas kitob va sunnatga ixlosli baland mujtahiddir.

Abu Yusuf Abu Hanifa dars halqasidagi tirishqoqligi va kuchli qobiliyati tufayli muqallid bo'lib qolmadi, o'z qarashlarini ochiq aytishdan tortinmadi, hatto ba'zan o'z ustoziga qarshi fikr bildirishdan ham o'zini tiymadi. Abu Yusuf hayotining keyingi davrlarida uning ustozini bilan qarashlarida farq oshgani seziladi. Uning qarashlari ustozinikidan farq qilsa-da, biroq unga bo'lgan hurmati va sadoqati hech qachon kamaymagan. Aytish mumkinki, Abu Yusuf va Abu Hanifa o'rtasidagi fiqhdagi turlicha qarashlar, odatda, uning qozilik davrida to'plagan tajribasi asosida chiqargan hukmlariga asoslanadi.

Abu Yusufning Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy bilan birgalikda Abu Hanifaning fikrlariga qo'shilmagan yuzlab masalalarni keltirish mumkin. Boshqa fiqhiy mazhablardagi ixtiloflar keyinchalik rivojlansa, hanafiy mazhabidagi ixtiloflar Abu Hanifa va uning shogirdlari Abu Yusuf, Imom Muhammad va Zufarlar tomonidan mazhabning shakllanishi davrida yuzaga kelgan. Bu mazhabdagi fiqhiy qarashlar shakllanishida Abu Yusufning hissasi juda kattadir. Abu

Yusufning fiqh ilmidagi oʻrni va yuksak mavqeyi fuqarolar tomonidan mujtahid olim sifatida eʼtirof etilishiga sazovor boʻlgan.

Abu Hanifa oʻz taʼlimoti boʻyicha fundamental asar yozib qoldirmadi. Uning bir necha kichik risolalarida esa baʼzi gʻoyaviy qarashlari aks ettirilgan. Abu Hanifa tomonidan yozilgan eng mashhur asarlardan biri “Fiqh al-Akbar” hisoblanadi, unda ilk marta ortodoks islom taʼlimotining asosiy nazariyasi tizimlashtirilgan. Bundan tashqari, u yana bir necha asar yozib qoldirgan, masalan: “Fiqh al-Absat”, “Kitob al-Alim va al- Mutaallim”, “Maʼrifat al-Mazahibi”, “Al-Asl”¹⁰.

U oʻz ilmiy merosini shogirdlariga ogʻzaki tarzda taqdim etgan boʻlsa-da, uning shogirdlari ustozidan qolgan ilmiy merosni tizimlashtirgan holda bayon qildilar. Ular bu buyuk zotning ilmiy merosini rivojlantirdilar va ularning saʼy-harakatlari tufayli anʼanaviy islomda eng keng tarqalgan fiqhiy mazhab hanafiylikni shakllantirdilar. Ayniqsa, Abu Yusuf xalifalikning bosh qozisi lavozimida ishlaganligi tufayli xalifalik boʻylab keng tarqalishiga sabab boʻldi. Xotib Bagʻdodiy: “Agar Abu Yusuf boʻlmaganida edi, bu kunda na Abu Hanifa, na Abi Laylaning ismi tilga olinmas edi. Ammo u ularning bilimlari va fikrlarini tarqatdi”, deb taʼkidlagan. Bagʻdodiy uni Abu Yusufni Abu Hanifaning eng yaqin doʻstlaridan biri sifatida koʻrganligini va hanafiy mazhabi boʻyicha ilk fiqh uslubidagi asar yozganligini aytib oʻtgan. Uning fikricha, hanafiy mazhabidagi masalalarni yozib tarqatgan, Abu Hanifa ilmini boshqa joylarga yetkazgan shaxs Abu Yusufdir.

Abu Yusuf hanafiy mazhabining fiqh masalalarini oʻz ichiga olgan asarlarni yozar ekan, ustoz Abu Hanifadan oʻrganganidek, masalalarning asl mohiyatini anglab yetish tamoyilini qoʻllagan. Uning qozi sifatidagi faoliyati hanafiy mazhabi ahkomlarini qaror toptirish va mustahkam mavqega ega boʻlishida muhim rol oʻynadi. Chunki, qozilik lavozimi Abu Yusufning fiqhiy hukmlarining amalda qoʻllanilishi mumkinligini koʻrsatdi. Shaxsan u hanafiy mazhabining yoyilishiga boshchilik qilgan va odamlarni bu mazhabga kirishga undagan. Keyinchalik, uning qoziul-quzzot etib tayinlanishi hanafiy mazhabidagi fiqh ilmini oʻrganish imkonini berdi. Darhaqiqat, manbalarda hanafiy faqihlarining Iroq va uning atrofida zich yashashi, qozilarning bu mazhabga mansub ekani qayd etilgan.

Hanafiy mazhabidagi dastlabki imomlarning nomlanishi ham tuzib chiqilgan. Hanafiy adabiyotida Abu Hanifa “Imomi Aʼzam” taxallusi, Abu Hanifa va Abu Yusuf “Shayhon” atamasi, Abu Hanifa va Muhammad ash-Shayboniy “Tarafayn” atamasi, Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniy “Sohibon”, “Sohibayn” va “Imomayn” atamasi tarzida keltiriladi. Bu

¹⁰ Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. –Тошкент: ТДШИ нашриёти. 2009. – Б. 63.

nomlanishdan tushunilishicha, hanafiy mazhabi adabiyotida Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniy Abu Hanifa bilan birga mazhab asoschisi sifatida qabul qilingan¹¹.

Abu Yusuf Abu Hanifadan uzoq vaqt tahsil oldi. Shu sababdan uning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlariga ta'sir o'tkazgan. Abu Yusuf ra'y (aql) tarafdori sifatida ustoz kabi iqtisodiy qarashlarda aql-idrokka tayanganligi bilan mashhurdir. U Qur'oni karim, Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislariga murojaat qilishdan oldin turli iqtisodiy fikrlarni qiyos yordamida tushuntirib o'tadi. Masalaga bunday yondashuv Abu Yusuf g'oyalari dolzarb va davlat ahamiyatiga molik ekanligini ko'rsatadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, buyuk ustoz Imom Abu Hanifaning tafakkur yuritish uslubi Abu Yusuf qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ra'y olimi sifatida mashhur bo'lgan Abu Hanifaning ko'plab fikrlari Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarida keltirilgan. Abu Yusuf o'z asarida naqlni aqliy dalillar (ra'y) bilan moslashtirdi. Vaholanki, o'sha davr olimlari kitob yozishda aqliy dalildan ko'ra naqliy dalilni ilgari surishga moyil edilar.

O'z davrining buyuk fiqh ulamolaridan biri bo'lgan Imom Abu Yusuf hanafiylik mazhabi metodologiyasi orqali xalifalikdagi muammolarni bartaraf etishga harakat qildi. Mutafakkir olimning ijtimoiy hayotdagi o'rnini uning muammolarini hal etish uslubidan kelib chiqadi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Mutafakkir boshqa fiqh ulamolari singari Qur'oni karimga tayangan holda, o'z tafakkur tizimini shu asoslar doirasida shakllantirdi. U tomonidan ilgari surilgan tamoyillar bugungi kunda ham umuminsoniy qadriyat sifatida saqlanib qolgan. Bular: adolat, rahm-shafqat, oqillik, hayo, zukkolik, tinchlik kabilar. U xuddi shu tamoyillar asosida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalarni ishlab chiqdi.

Abu Yusuf davrida fanlar hali tizimlashmagan edi. Olimlar ijtimoiy, iqtisodiy, falsafiy, siyosiy, diniy masalalarda ma'lum tamoyillar doirasida o'z g'oyalari bildirishgan. Shuning uchun ham Abu Yusuf davrida falsafiy-huquqiy masalalar iqtisodiy masalalardan ajratilmagan. Iqtisodiy soha ham fiqhga asoslangan holda hal etilgan.

XULOSA

Fiqh ilmiga Payg'ambar (s.a.v) davrlarida asos solingan, manbalari sahobayi kiromlar va tobiunlar davrlarida aniqlangan va mujtahid imomlar davrida ilmiy jihatdan boyitilgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan eng muhim asarlardan biri o'z davrining yetuk fiqh olimi Abu Yusufga tegishli desak, mubolag'a bo'lmaydi.

¹¹ Duman, Ali, Ceylan, M. Nezir, "Imam Ebu Yusuf ve Fikhi", YIL: 12, CILT: 12, SAYI: 24, Temmuz - Aralık 2019/2 ss. 89 - 126

Faqir oilada dunyoga kelgan Abu Yusuf jamiyatning eng quyi qatlamidan chiqqan va chuqur ilmi tufayli davlatning eng yuqori darajalaridan biri bo'lgan qoziul-quzzot mavqeyiga ko'tarilgan. Uning teran ilm sohibi bo'lishida ustozlari Abu Hanifaning o'rni beqiyosdir.

Hanafiylik mazhabi Abu Hanifa vafotidan keyin jamiyat hayotiga tez tarqaldi. Bunda avvalo, Abu Yusufning xizmatlari katta bo'ldi. Negaki, Abu Hanifaning Abbosiylar xalifaligiga qarshi kayfiyati uning ta'limotini xalifalikda taraqqiy etishiga to'sqinlik qilar edi. Abu Yusuf xalifalikning bosh qozisi bo'lgach, uning ta'limotini qayta tikladi va xalifalikning rasmiy diniy mazhabiga aylantirdi. Bunday deyishimizga sabab, Abu Yusuf davlat bosh qozisi sifatida barcha masalalarni hanafiylik nuqta'yi nazaridan ko'rib chiqar va fatvo chiqarar edi. U tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalar ham hanafiylik ta'limoti bo'yicha yozilgan. Uning qo'llanmalari nafaqat butun xalifalik uchun o'sha davrdagi asosiy manbalardan biri bo'lgan, balki keyinchalik ham ko'plab islom davlatlarida undan foydalanilgan. Bundan tashqari, o'sha davrda Abbosiylar xalifaligi juda katta hududlarga egalik qilar edi. Shu sababdan hanafiylik rasmiy davlat diniy mazhabi sifatida xalifalikning chekka mintaqalarigacha borib yetdi. Shuningdek, Abu Yusufdan keyin kelgan bosh qozilar ham uning shogirdlari bo'lib, ular ham shu yo'lda davom etdilar.

Ilk o'rta asrlarga kelib islom madaniyati va ilm-fani o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi va dunyo ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan holda insoniyat tamaddunining keyingi bosqichlari uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda islom dini turli millatlar uchun ma'naviy va g'oyaviy birlashtiruvchi kuch rolini o'ynagan.

Musulmon iqtisodiy tizimining shakllanishida islom olimlari mehnatining samarasi ulkan. Islom shariati qoidalariga tayangan musulmon olimlari tomonidan o'z davrlari uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy va falsafiy masalalarni tadqiq etilishi yangi bilimlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Islomning ilk davrida musulmon iqtisodchilari fiqh olimlari bo'lishgan. Xususan, Horun ar-Rashid davrida bosh qozi bo'lgan fiqh olimi Abu Yusufning "Kitob al-xaroj" asarini eslashning o'zi kifoya. Unda nafaqat soliqqa tortishning huquqiy jihatlariga, balki davlatning iqtisodiy siyosati borasidagi masalalarga ham murojaat etgan.

Abu Yusufning ilmiy merosini o'rganish asosida fuqarolarning tinchligi, ularning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilash yo'lida uning ulkan sa'y-harakatlari aniqlandi. Abu Yusufning islomiy soliq tizimini ishlab chiqishda soliq turlarini birma-bir aniq dalillarga asoslangan holda bayon etishi davlat boshqaruv tizimida mamlakat iqtisodiy hayotini tartibga solishda katta yordam berganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит.статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. 2001.
2. Доктор Мустафо Шакъа. Буюк имом Абу Ҳанифа Нўъмон. – Самарқанд, “Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти”. 2019.
3. Жузжоний А.Ш. Ислом ҳуқуқшунослиги. Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёти, 2002.
4. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури. – Тошкент: ТДШИ нашриёти. 2009.
5. Aydarbek Tulepov. Islom va aqidaparast oqimlar. O‘zbekiston. 2013.
6. Hendri H.A. The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic banking and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018.
7. Duman, Ali, Ceylan, M. Nezir, “İmam Ebu Yusuf ve Fikhi”, YIL: 12, CİLT: 12, SAYI: 24, Temmuz - Aralık 2019/2.